"TASDIQLAYMAN"
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi 410 000 - "Biznes va boshqaruv" sohasini muvofiqlashtiruvchi soha Kengash raisi

_____ S. Mexmonov

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi 410 000 "Biznes va boshqaruv" sohasini muvofiqlashtiruvchi soha Kengash yig'ilishining

1 - sonli BAYONI

2024-yil "14-iyun" Toshkent shahri

Raislik qiluvchi: - **S.U.Mexmonov** - Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, o'quv ishlari bo'yicha birinchi prorektor

Ishtirok etdilar: **M.R.Baltabayev** - Oliy ta'limni rivojlantirish tadqiqotlari markazi direktori;
L.R.Zaripov - Oliy ta'limni rivojlantirish tadqiqotlari markazi boshqarma boshlig'i;

Kadr buyurtmachilari: N.F.Karimov, N.R.Djurayev, U.M.Hamroyev, I.Y.Kulliyev, Sh.N.Gulturayev, T.A.Ismailov, M.M.Tulaxodjayeva;

Turdosh OTMlar: I.B.Rustamova, B.E.Tog'ayev, D.Sh.Shavqiddinova, M.M.Xamdamov, X.N.Rejabov, B.A.Davlyatov;

Universitet mas'ullari: F.Z. Karakulov, B.D.Xajiyev, H.A.Hakimov, I.X.Choriyev, D.B.Gofurov hamda mas'ul kafedra mudirlari.

KUN TARTIBI

1. 410 000 - "Biznes va boshqaruv" ta'lim sohasi bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklarining Malaka talablarini tasdiqlash.
2. 410 000 - "Biznes va boshqaruv" ta'lim sohasi bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari uchun Fanlar katalogini tasdiqlash.
3. Boshqa masalalar.

(S. Mexmonov, M. Baltabayev, L.Zaripov, B. Xajiyev)

Kengash majlisini kengash raisi S.Mexmonov kirish so'zi bilan ochib, kvorum mavjudligini va majlisni ochiq deb e'lon qilib o'tdi.

Kengash raisi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi 410 000-"Biznes va boshqaruv" sohasini muvofiqlashtiruvchi soha Kengash yig'ilishini kengash raisi S. Mexmonov ochib berdi. S.Mexmonov kengash majlisida O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy ta'limni rivojlantirish tadqiqotlari markazi direktori M.R. Baltabaev ham ishtirok etayotganligini ta'kidlab, majlisni ochib berish uchun so'zni M.R. Baltabaevga berdi.

M.R. Baltabaev o'z so'zida 2024/2025 o'quv yili uchun ishlab chiqilgan o'quv-uslubiy hujjatlar (malaka talabi, o'quv reja va sillabuslar)ni muhokamasi munosabati bilan tashkil etilgan "Biznes va boshqaruv" ta'lim sohasi Muvofiqlashtiruvchi soha kengashining yuqori saviyada tashkil etilganligini ta'kidlab o'zining minnatdorchiligini bildirib o'tdi.

2023/2024 o'quv yilida Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti 2 ta "Ijtimoiy xulq atvorga mansub fanlar" va "Biznes va boshqaruv" ta'lim sohalarida yetakchi hisoblanardi. Mazkur sohalarning ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari bo'yicha 40 dan ortiq davlat oliy ta'lim muassasalarida kadrlar tayyorlash yo'lga qo'yilgan bo'lib, ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari o'quv-uslubiy hujjatlari (malaka talabi, o'quv reja va sillabuslar)ni ishlab chiqishda Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti hamda sobiq Toshkent moliya instituti O'quv-uslubiy boshqarma xodimlari faol ishtirok etganligini e'tirof etildi.

Yangi tasdiqlangan klassifikatorga muvofiq Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti 420 000 – Biznes va boshqaruv ta'lim sohasi bo'yicha yetakchi hisoblanib, mazkur ta'lim sohasida 14 ta bakalavr ta'lim yo'nalishi hamda 42 ta magistratura mutaxassisligi mavjudligi va ularnnig barchasidan malaka talablari ishlab chiqilib, yakuniga yetkazilganligi ta'kidlandi.

M.R. Baltabaev majlis ishtirokchilarini quyidagi muhim jihatlarga e'tibor qaratishlarini ta'kidlab o'tdi.

Birinchidan, o'quv-uslubiy xujjatlarni ishlab chiqishda mazkur sohada kadrlar tayyorlovchi OTM mutaxassislari soha rivojini o'ylagan holda birdam va hamjihatlikda ishlash;

Ikkinchidan, ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari malaka talablari ishlab chiqishda jahonning kuchli TOP-300 talikka kirgan OTMlari tajribalarini tahlil qilishi, Respublika hamda hududiy ish beruvchi kadrlar iste'molchilari bilan hamkorlikda ishlash;

Uchinchidan, ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari malaka talablari bilan birgalikda fanlar katalogini hamda o'quv rejalarini va fan sillabuslarini ham ishlab chiqish.

M. Baltabaev o‘z so‘zini yakunida O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirining 168-sonli buyrug‘ida belgilangan vazifalar ijrosini o‘z vaqtida va sifatli bajarish lozimligini ta’kidladi.

Shundan so‘ng, kengash raisi S. Mexmonov kun tartibidagi birinchi masala muhokamasiga o‘tib, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Iqtisodiyot sohalari uchun kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 7-fevraldagi PQ-62-son qarori 2-ilovasi bilan tasdiqlangan “Yo‘l xaritasi”da yangi ta’lim yo‘nalishlari va magistratura mutaxassisliklarining malaka talabalari, o‘quv rejasi va o‘quv dasturlarini yetakchi xorijiy oliy ta’lim muassasalarining tajribalari asosida ishlab chiqish vazifasi belgilanganligini, ushbu qarorda belgilangan vazifalar ijrosini ta’minlash maqsadida joriy yilining 6-may kuni Shavkat Mirziyoev huzurida oliy ta’lim yo‘nalishlarini optimallashtirish, qabul va malaka tizimlarini takomillashtirish bo‘yicha takliflar taqdimoti o‘tkazilganligini ta’kidlab o‘tdi.

Shuningdek, bugungi kunda bakalavriatda 306 ta yo‘nalish, magistraturada 625 ta mutaxassisliklar mavjudligi,lekin ularning ayrimlari xalqaro standartlar va zamonaviy mehnat bozori talablariga mos emasligi, bu bitiruvchilarda to‘liq malaka shakllanishi va ularning ishga joylashishida muayyan qiyinchiliklar tug‘dirayotganligi ta’kidlandi.

O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirining 2024 yil 20 may kuni “O‘z DSt 3557:2021 “Oliy ta’limning davlat ta’lim standarti. Oliy ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori” O‘zbekiston Respublikasining Davlat standartiga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida” gi 168-sonli buyrug‘i qabul qilindi. Mazkur buyruqda oliy ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklarining yangi tahrirdagi klassifikatori ishlab chiqildi. Ushbu buyruq asosida Oliy ta’limning bakalavriat ta’lim yo‘nalishlari va magistratura mutaxassisliklari optimallashtirilib 40 foizga qisqartirilganligini ta’kidlab o‘tdi.

Shuningdek, 2024/2025 o‘quv yilida 410 000 – “Biznes va boshqaruv” ta’lim sohasini muvofiqlashtiruvchi soha kengashi tarkibida 14 ta bakalavriat ta’lim yo‘nalishi va 42 ta magistratura mutaxassisligining malaka talablarining loyihalari TOP-300 talikdagi yetakchi xorijiy oliy ta’lim muassasalarining tajribalari asosida yirik hamkor ish beruvchi tashkilotlardan jalb qilingan ekspertlar hamda xorijda tahsil olgan mutaxassislar bilan hamkorlikda ishlab chiqilganligini, 14 ta bakalavriat ta’lim yo‘nalishi (12 tasi bevosita TDIUda tayyorlangan, 60410400-Bojxona ishi va 60411400-Mamlakatshunoslik ta’lim yo’nalishlari mos ravishda Bojxona instituti hamda Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti tomonidan ishlab chiqilgan) va 42 ta magistratura mutaxassisligi (33 tasi TDIU tomonidan, 9 tasi Turdosh OTMlar tomonidan ishlab chiqilgan)ning malaka talablari ishlab chiqilganligini ta’kidlab o‘tdi.

Malaka talablarini ishlab chiqishda har bir ta'lim yo'nalishi va mutaxassisliklarning malaka talablari ish beruvchi yirik korxona va tashkilotlar, xorijda ta'lim olib qaytgan yuqori malakali ekspertlar, turdosh OTM vakillari bilan birgalikda joriy yil 16 maydan 5 iyungacha bo'lgan vaqt oralig'ida muhokamalardan o'tkazilganligi, mazkur muhokamalarda ish beruvchi tashkilotlar, xorijiy ekspertlar va turdosh OTMlarning taklif va tavsiyalari inobatga olinganligi ta'kidlandi.

Shundan so'ng, kengash a'zolari ishtirokida har bir bakalavriat ta'lim yo'nalishi va magistratura mutaxassisliklarining malaka talablarini muhokamasiga o'tildi. Muhokama jarayonida kengash a'zolari tarkibida ishtirok etayotgan ish beruvchi yirik korxona va tashkilotlar hamda OTMlarining yetakchi mutaxassislarining fikr-mulohazalari, takliflari inobatga olingan holda malaka talablari bir ovozdan tasdiqlandi.

Majlis yig'ilishida malaka talablarida keltirib o'tilgan ayrim fanlar kafedralar kesimida yuklamalarni to'g'ri taqsimlash, OTM strukturasidagi xususiyatlardan kelib chiqib kurslar kesimida semestrlarini o'zgartirish taklifi bir ovozdan ma'qullandi.

Shuningdek, talabalarning iqtisodiyotni turli tarmoqlarida samarali faoliyat yuritishlari, zamonaviy kasblarni puxta egallashlari, ularning shaxsiy ta'lim trayektoriyalari va qiziqishlarini inobatga olgan holda 410 000 - "Biznes va boshqaruv" ta'lim sohasi bakalavriat ta'lim yo'nalishlari uchun ishlab chiqiladigan o'quv rejalarning tanlov fanlar blokini shakllantirishda OTM bitiruvchilariga qo'shmalaka berish imkonini beruvchi fanlarni kiritish taklifi kengash a'zolari tomonidan ma'qullandi.

Kun tartibidagi ikkinchi masala yuzasidan kengash raisi S. Mexmonov so'zga chiqib, 2024/2025 o'quv yilidan boshlab bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari bo'yicha majburiy va tanlov fanlari katalogi ishlab chiqilganligini ta'kidlab o'tdi. Fanlar katalogini yaratishda ish beruvchi yirik korxona va tashkilotlar, turdosh OTMlarning taklif va tavsiyalarini inobatga olgan holda ishlab chiqilganligi, fanlar katalogini shakllantirishdi qo'sh malakalar berish amaliyoti ham inobatga olinganligi ta'kidlab o'tildi.

Kun tartibida keltirilgan masalalar yuzasidan bildirlgan ma'lumotlarni inobatga olgan holda, Kengash

QAROR QILADI:

1. Kengash raisi S.Mexmonov va Oliy ta'limni rivojlantirish tadqiqotlari markazi direktori M.R. Baltabaevlarning axborotlari ma'lumot sifatida qabul qilinsin;

2. Bakalavriat ta'lim yo'nalishlarining majburiy fanlar blokidagi "Jismoniy madaniyat va sport" fani uchun ajratilgan kreditlar miqdori xususiyatidan kelib

chiqib, ta'limning kunduzgi ta'limdan boshqa shakllari (kechki, masofaviy, sirtqi) uchun o'quv rejadagi tanlov fanlari uchun ajratilgan kreditlar hajmiga o'tkazilishiga ruxsat berilsin;

3. 410 000 – "Biznes va boshqaruv" ta'lim sohasini muvofiqlashtiruvchi soha kengashi tarkibidagi 14 ta bakalavriat ta'lim yo'nalishi va 42 ta magistratura mutaxassisligining malaka talablari ma'qullansin va O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy ta'limni rivojlantirish tadqiqotlari markaziga tasdiqlash uchun taqdim etilsin (1-ilova);

4. 410 000 - "Biznes va boshqaruv" ta'lim sohasi bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari uchun Fanlar katalogi ma'qullansin va O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy ta'limni rivojlantirish tadqiqotlari markaziga belgilangan tartibda taqdim etilsin (2-ilova);

5. 410 000 - "Biznes va boshqaruv" ta'lim sohasi bakalavriat ta'lim yo'nalishlari uchun ishlab chiqiladigan o'quv rejalarning tanlov fanlar blokini shakllantirishda OTM bitiruvchilariga qo'shmalaka berish imkonini beruvchi fanlar kiritish taklifi ma'qullansin.

5. Mazkur Kengash qarorining ijrosini nazorat qilish o'z zimmada qoldiraman.

Kengash kotibi **I. Jo'rayev**

IMZONI TASDIQLAYMAN TDIU
INSON RESURSLARINI BOSHQARISH
BO'LIMI BOSHLIG'I S. XASANOV
(imzo)

INSON RESURSLARINI BOSHQARISH BO'LIMI
TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

1-ilova

410 000 – Biznes va boshqaruv ta'lim sohasining bakalavr ta'lim yo'nalishlari

№	Ta'lim yo'nalishlari nomi	Ta'lim yo'nalishlari shifri
1	Ta'lim yo'nalishi: Iqtisodiyot	60410100
2	Ta'lim yo'nalishi: Buxgalteriya hisobi	60410200
3	Ta'lim yo'nalishi: Soliqlar va soliqqa tortish	60410300
4	Ta'lim yo'nalishi: Bojxona ishi	60410400
5	Ta'lim yo'nalishi: Moliya va moliyaviy texnologiyalar	60410500
6	Ta'lim yo'nalishi: Bank ishi	60410600
7	Ta'lim yo'nalishi: Statistika	60410700
8	Ta'lim yo'nalishi: Menejment	60410800
9	Ta'lim yo'nalishi: Biznesni boshqarish	60410900
10	Ta'lim yo'nalishi: Inson resurslarini boshqarish	60411000
11	Ta'lim yo'nalishi: Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar	60411100
12	Ta'lim yo'nalishi: Marketing	60411200
13	Ta'lim yo'nalishi: Savdo ishi	60411300
14	Ta'lim yo'nalishi: Mamlakatshunoslik	60411400

410 000 – Biznes va boshqaruv ta'lim sohasi magistratura mutaxassisliklari

№	Ta'lim mutaxassisliklari nomi	Ta'lim mutaxassisliklari shifri
1	• Iqtisodiy nazariya	70410101
2	• Iqtisodiyot	70410102
3	• Makroiqtisodiyot	70410103
4	• Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari	70410104
5	• Monopoliyaga qarshi boshqaruv va raqobatni rivojlantirish	70410105
6	• Bioiqtisodiyot	70410106
7	• Ekonometrika	70410107
8	• Mintaqaviy iqtisodiyot	70410108
9	• Iqtisodiy xavfsizlik	70410109
10	• Raqamli iqtisodiyot	70410110
11	• Buxgalteriya hisobi	70410201
12	• Audit	70410202
13	• Soliqlar va soliqqa tortish	70410301
14	• Bojxona ishi	70410401
15	• Moliya	70410501
16	• Korporativ moliya va qimmatli qog'ozlar bozori	70410502
17	• Investitsiyalarni boshqarish	70410503
18	• Sug'urta ishi	70410504
19	• Sug'urta kompaniyalarini boshqarish	70410505
20	• Davlat moliyaviy nazorati va auditi	70410506

21	• Korporativ moliyani boshqarish	70410507
22	• Iqtisodiyotni monetar tartibga solish	70410508
23	• Pensiya fondlarini boshqarish	70410509
24	• Baholash ishi	70410510
25	• Bank ishi	70410601
26	• Statistika	70410701
27	• Biznes-tahlil	70410702
28	• Menejment	70410801
29	• Loyiha boshqaruvi	70410202
30	• PR menejment va PR tahlil	70410203
31	• Korporativ boshqaruv	70410804
32	• Biznesni boshqarish (Master of Business Administration - MBA)	70410901
33	• Strategik menejment va xalqaro biznes (MVA)	70410902
34	• Inson resurslarini boshqarish	70411001
35	• Jahon iqtisodiyoti	70411101
36	• Tashqi iqtisodiy faoliyat	70411102
37	• Marketing	70411201
38	• Lizing	70411202
39	• Strategik marketing	70411203
40	• Savdo ishi	70411301
41	• Elektron tijorat	70411302
42	• Mamlakatshunoslik	70411401

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi ta'lim sohalari bo'yicha muvofiqlashtiruvchi soha kengashi yig'ilishining

Q A Y D V A R A G' I

14.06.2024y. 11:00

№	F.I.Sh.	Ish joyi, lavozimi MSKdagi pozitsiyasi	Malakasi va tajribasiga oid ma'lumotlar	Imzo
I	**Ta'lim sohasi: Biznes va boshqaruv - 410 000**			
1	Mehmonov Sultonali Umaraliyevich	TDIU, *MSK raisi*	Iqtisodiyot fanlari doktori, professor	
2	Karimov Ne'matilla Fatxullaevich	O'zbekiston Auditorlar palatasi, *rais o'rinbosari*	Iqtisodiyot fanlari doktori, professor	
3	Jo'rayev Isroil Ibroximovich	TDIU, *MSK kotibi*	Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent	
4	Djurayev Numon Rustamovich	IMV, departament direktori, *MSK a'zosi*	Kadr buyurtmachisi	
5	Hamroyev Umid Muhammadovich	IMV, departament direktori o'rinbosari, *MSK a'zosi*	Kadr buyurtmachisi	
6	Ismailov Timur Atabayevich	Soliq qo'mitasi, *MSK a'zosi*	Kadr buyurtmachisi	ZOOM
7	Gulturayev Shoxpur Negmatullayevich	"O'zsanoatqurilishbank" ATB, *MSK a'zosi*	Kadr buyurtmachisi	ZOOM
8	Tulaxodjayeva Minovar Maxkamovna	Buxgalterlar va auditorlar MA, *MSK a'zosi*	Kadr buyurtmachisi	
9	Kulliyev Istam Yangimurodovich	AT "Aloqabank", *MSK a'zosi*	Kadr buyurtmachisi	ZOOM
10	Rejabov Xayrulla Nematjanovich	O'zMU, *MSK a'zosi*	Turdosh OTM	
11	Tog'ayev Bekzod Ergashevich	O'zMU, *MSK a'zosi*	Turdosh OTM	
12	Xamdamov Mirzoumid Mirzoyuldashovich	JIDU, *MSK a'zosi*	Turdosh OTM	—
13	Rustamova Irodaxon Baxramjanovna	TDAU, *MSK a'zosi*	Turdosh OTM	
14	Shavqiddinova Dilnavoz Shavqiddin qizi	"TIQXMMI, *MSK a'zosi*	Turdosh OTM	
15	Davlyatov Bekzodjon Aslanxojayevich	TTYeSI, *MSK a'zosi*	Turdosh OTM	
16	Nasriddinov Fazliddin Najmiddinovich	TDIU, *MSK a'zosi*	TDUI	
17	Karakulov Farxod Zayputdinovich	TDIU, MSK a'zosi	TDUI	

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi 410 000 “Biznes va boshqaruv” sohasini muvofiqlashtiruvchi soha Kengash yig‘ilishining 1 - sonli bayoniga 2-ilova

MAGISTRATURA MUTAXASSISLIKLARINING FANLAR KATALOGI

T/r	Fanning kodi*	Fanning nomi	Fanning qisqa tavsifi	Kredit miqdori	Semestr
70410102-Iqtisodiyot					
1.01	ITM1105	Ilmiy tadqiqot metodologiyasi	Ushbu fanda ilmiy-tadqiqot bilan shug‘ullanishga tayyorlash, ilmiy-ijodiy faoliyatni rivojlantirish, tanlangan tadqiqot mavu bo‘yicha milliy va xalqaro manbaalarni o‘rganish, STATA dasturini o‘zlashtirish va ishlash, ilmiy dalillar to‘plash, ularni qayta ishlash, tadqiqot modeli va usullarini o‘rganish, tadqiqot dizayni, to‘plangan ma’lumotlarni tizimga solish, tanqiqdiy ilmiy sharh yozish, retrospektiv qiyosiy tahlil qilish, ma’lumotlar turlari va ma’lumotlarni yig'ish texnikasi miqdoriy va sifat usullari va ma’lumotlarni tahlil qilish, axloqiy masalalar, ko‘chirmachilik (plagiat), innovatsion g‘oyalarni ishlab chiqish, ilmiy asarlar yaratish, maqola yozish, ularni nashr ettirish, impakt faktorli va Skopus jurnallari talablari doirasida maqola tayyorlash, “Pivot-RP” ma‘lumotlar bazasida ishlash, “Mendeley” dasturida ishlash, “Science Direct” va “Elsevier” da maqolalarni izlash, magistrlik dissertatsiyasini yozish kabi ko‘nikmalarni egallashlaridan iborat.	5	1
1.02	MFO‘M1105	Maxsus fanlarni o‘qitish metodikasi	Ushbu fanni o'qitish jarayonida interfaol metodlar va ilg'or pedagogik texnologiyalardan foydalanish, ta'lim sohasidagi ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish bilan bog'liq kompleks masalalar va ulardan optimallashgan usullarda foydalanish malakalari shakllantiriladi. Fanning asosiy jihatlaridan biri bo‘lajak mutaxassislarni olgan bilim va ko‘nikmalarini mehnat bozorida raqobatdosh kadrlar qilib shakllantirish hamda zamonaviy pedagogik kompetentligini oshirishdan iborat. Maxsus fanlarni o'qitishning nazariy va amaliy tomonlarini o'rganish, didaktik ta'minotini tadqiq qilish va darslarni tahlil qilish, prognozlash	5	1

			uchun zarur bo'lgan ko'nikmalar, talabalarga oliy ta'limning o'rni va ahamiyatini, o'quv me'yoriy hujjatlarni, ta'lim maqsadlarini belgilashni, maxsus fanlarni o'qitish metodikasini ishlab chiqish yo'llarini o‘rgatadi.		
1.03	MIKIQ-21105	Mikroiqtisodiyot-2	Mikroiqtisodiyot – 2 ilg‘orlangan klassik mikroiqtisodiyot kursi bo‘lib, u o‘z ichiga klassik mikroiqtisodiyot kursining barcha mavzularini olgan: iste’molchi tanlovi nazariyasi, vaqt va noaniqlik omiliga ko‘ra bozor talabi, ishlab chiqarish, ishlab chiqarish xarajatlari va foyda nazariyalari, bozor tarkibi nazariyasi: xususiy va umumiy bozor muvozanatlari, ijtimoiy farovonlik nazariyasi; tashqi va ichki samara, ijtimoiy ne’mat va assimetrik axborot bilan bog‘liq muammolar; bulardan tashqari o‘yinlar nazariyasi, auksionlar va aniqlangan afzal ko‘rish masalalarini ham qamrab oladi.	5	1
1.04	MAKIQ-21205	Makroiqtisodiyot-2	Makroiqtisodiyot-2 fani makroiqtisodiy kategoriyalar, makroiqtisodiy muammolarning namoyon bo‘lish shakllari va sabablari, iqtisodiy jarayonlarni makroiqtisodiy modellar vositasida tahlil etish, makroiqtisodiy siyosat maqsadlari va vositalari, ochiq iqtisodiyot sharoitida makroiqtisodiy siyosat yuritish xususiyatlari hamda makroiqtisodiy kontseptsiya va modellardan foydalangan holda makroiqtisodiy siyosat natijalarini tahlil etish va ular uchun normativ vazifalar va muayyan chora-tadbirlar belgilashni o’z ichiga oladi. Ushbu fan makroiqtisodiyot faninining mantiqiy davomi bo’lib, magistratura talalalariga fanni kengroq rakursdan tadqiq etishga imkon beradi.	5	2
1.05	EKMET-21105	Ekonometrika-2	Ekonometrika-2 kursi regressiya modellarini baholashga asosiy e’tibor qaratadi. Ekonometrik nazariyaga, ekonometrikani real muammolarga nisbatan qo‘llash va baholash natijalarini talqin qilishga alohida e’tibor beriladi. Mazkur kursda chiziqli va chiziqsiz regressiya, Gauss-Markov teoremasi, haqiqatga maksimal o‘xshashlik, vaqtli qatorlar, ekonometrik tenglamalar tizimi, panel ma’lumoti modellar, parametrik va yarim parametrik modellar ko‘rib chiqiladi. Ushbu fan ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni rivojlantirish bo’yicha qarorlar qabul qilishda hamda boshqarishda o’rganilayotgan muammo yoki muammolarni miqdoriy tahlil qilish imkoniyatini beradi hamda iqtisodiyotidagi hodisa va jarayonlar hamda ularning analitik yechimlarining turli variantlarini shakllantiradi.	5	1
1.06	ICHTE2205	Ishlab chiqarishni tashkil etish	Ushbu fanda raqobat siyosati, bozor mexanizmi va tuzilmasi, qo‘shilish va birlashish bilan bog‘liq bo‘lgan iqtisodiy siyosatni o‘rganish usullari, zamonaviy bozor sharoitlarida ishlab chiqarishni	5	2

			tashkil etish va boshqarish, tranzaksiya harajatlari va shartnomaviy munosabatlar, yangi tashkiliy tuzilmalar va ishlab chiqarish jarayonini tashkil qilish, narxlar diskriminatsiyasi, qiymat va narxlash, birinchi darajali, ikkinchi darajali va uchinchi darajali narx diskriminatsiyasi, turli bozor sharoitida transfer narxlash, monopoliyada guruhli va individual narxlash, oligopoliyalardagi guruh va individual narxlar, xulq-atvorga asoslangan narxni diskriminatsiyasi, narx diskriminatsiyasi va monopoliya: chiziqli narxlash va nochiziqli narxlash, monopoliya sharoitida mahsulot navi va sifati borasida nazariy asoslangan tushunchalar hayotiy misollarni, narxlar raqobati, miqdori bo‘yicha raqobat, narx miqdori bilan raqobatlashganda strategik almashtirishlar va strategik qo‘shimchalar b‘yicha tahlillar asosida xulosalar chiqarishni o‘rgatishdan iborat.		
70410201 – Buxgalteriya hisobi					
1.01	ITM1105	Ilmiy tadqiqot metodologiyasi	Ushbu fanda ilmiy-tadqiqot bilan shug‘ullanishga tayyorlash, ilmiy-ijodiy faoliyatni rivojlantirish, tanlangan tadqiqot mavu bo‘yicha milliy va xalqaro manbaalarni o‘rganish, STATA dasturini o‘zlashtirish va ishlash, ilmiy dalillar to‘plash, ularni qayta ishlash, tadqiqot modeli va usullarini o‘rganish, tadqiqot dizayni, to‘plangan ma’lumotlarni tizimga solish, tanqiqdiy ilmiy sharh yozish, retrospektiv qiyosiy tahlil qilish, ma’lumotlar turlari va ma’lumotlarni yig'ish texnikasi miqdoriy va sifat usullari va ma’lumotlarni tahlil qilish, axloqiy masalalar, ko‘chirmachilik (plagiat), innovatsion g‘oyalarni ishlab chiqish, ilmiy asarlar yaratish, maqola yozish, ularni nashr ettirish, impakt faktorli va Skopus jurnallari talablari doirasida maqola tayyorlash, “Pivot-RP” ma‘lumotlar bazasida ishlash, “Mendeley” dasturida ishlash, “Science Direct” va “Elsevier” da maqolalarni izlash, magistrlik dissertatsiyasini yozish kabi ko‘nikmalarni egallashlaridan iborat.	5	1
1.02	MFO‘M1105	Maxsus fanlarni o‘qitish metodikasi	Ushbu fanni o'qitish jarayonida interfaol metodlar va ilg'or pedagogik texnologiyalardan foydalanish, ta'lim sohasidagi ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish bilan bog'liq kompleks masalalar va ulardan optimallashgan usullarda foydalanish malakalari shakllantiriladi. Fanning asosiy jihatlaridan biri bo‘lajak mutaxassislarni olgan bilim va ko‘nikmalarini mehnat bozorida raqobatdosh kadrlar qilib shakllantirish hamda zamonaviy pedagogik kompetentligini oshirishdan iborat. Maxsus fanlarni o'qitishning nazariy va amaliy tomonlarini o'rganish, didaktik ta'minotini tadqiq qilish va darslarni tahlil qilish, prognozlash	5	1

			uchun zarur bo'lgan ko'nikmalar, talabalarga oliy ta'limning o'rni va ahamiyatini, o'quv me'yoriy hujjatlarni, ta'lim maqsadlarini belgilashni, maxsus fanlarni o'qitish metodikasini ishlab chiqish yo'llarini o‘rgatadi.		
1.03	BH21105	Boshqaruv hisobi - 2	“Boshqaruv hisobi-2” fanning asosiy maqsadi magistratura talabalariga boshqaruv hisobi amaliyotidagi o‘zgarishlarga e’tibor qaratgan holda boshqaruv hisobi nazariyaysi va amaliyoti bo‘yicha ilg‘or darajadagi tahliliy bilim berishdir. Fanning asosiy vazifalari boshqaruv hisobi nazariyasi va amaliyoti, shu jumladan xarajatlarni hisoblash, byudjetlashtirish va qarorlar qabul qilish usullari bo'yicha ilg‘or bilimlarni namoyish etish, boshqaruv hisobi nazariyasi va amaliyoti, shu jumladan xarajatlarni boshqarish, boshqaruv hisobi va yangi tashkilotlarda boshqaruvning kengroq masalalari bo‘yicha ilg‘or bilimlarni namoyish etish, turli tashkiliy kontekstlarda, xususan, aniq misollar bilan boshqaruv hisobi amaliyotini tushunish va tushuntirish, muayyan mavzular bo‘yicha bilimlarni namoyish eting, jumladan, samaradorlikni baholash modellari, boshqaruv nazorati va transfer narxlari va yangi amaliyotlar uchun tarqatish jarayonlari bilishi va qo‘llay olishidan iborat.	5	1
1.04	BTJ1105	Buxgalteriya, tashkilotlar va jamiyat	“Buxgalteriya, tashkilotlar va jamiyat” fanining maqsadi magistratura talabalarida iqtisodiyot turli tarmoqlaridadagi korxona va tashkilotlarda buxgalteriya hisobining o‘ziga xos xususiyatlari, vazifalari, tamoyillari, usullari hamda ulardagi mavjud muammolar bilan talabalarni nazariy va ilmiy jihatdan tanishtirishdir. Fanning vazifalariga qurilish tashkilotlarining buxgalteriya hisobi subyekti sifatidagi tavsifi va ular faoliyatining tashkiliy-huquqiy asoslari, qurilish tashkilotlarida buxgalteriya hisobining vazifalari, qurilish tashkilotlari hisob siyosatining xususiyatlari haqida tasavvur va bilimga ega bo‘lish, moliyaviy ko‘rsatkichlarni hisoblash usullarini qo‘llash, tashkilotlarda ilmiy muammolar va topshiriqlarning nazariy hamda konseptual molellarini ishlab chiqish va tadqiqot natijalarnni amaliyotga joriy etish, tashkilotlarda hisob-kitoblarni tahlil qilish va uning echimini asoslash, moliyaviy va iqtisodiy ma’lumotlarii kayta ishlash uchun turli vositalardan foydalanish, moliyaviy-iqtisodiy jarayonlarniig tasnifi asosida nazariy va ekonometrik standart modellarini yaratish ulardan olingan natijalarni tahlil qilish va izohlash bo‘yicha nazariy bilim va amaliy ko‘nikmalarga ega bo‘lish hisoblanadi.	5	1
1.05	AUD21205	Audit-2	Ushbu fanda audit va boshqa ishonchni ta’minlovchi topshiriqlar	5	2

			konsepsiyasi, тashqi auditni o`tkazish tartibi, korporativ boshqaruv samaradorligiga baho berish, auditning maqsadi va umumiy prinsiplari, auditorlik riskini baholash, ichki nazorat tizimi elementlari, ichki nazorat masalalari bo‘yicha o‘zaro axborot almashinuvi, ichki auditorlar tomonidan bajariladigan autsorsing va topshiriqlar, moliyaviy hisobotni shakillanishining omillari va auditorlik dalillar, auditorlik amallari turlari, auditorlik tanlash va testlashning boshqa usullari, hisobot sanasidan keyingi hodisalar, faoliyat uzluksizligiga baho berish, yozma taqdimnomani tayyorlash va taqdim etish, audit jarayonini yakunlash va yakuniy sharhni tayyorlash, mustaqil auditorning xulosasi turlari va ularni tuzish tartibi o‘rganiladi.		
1.06	SBH1205	Strategik boshqaruv hisobi	“Trategik boshqaruv hisobi” fanining asosiy maqsadida talabalarda zamonaviy sharoitlarda strategik boshqaruv sohasida fan va metodologiyasi rivojlanishi uchun zarur professional bilim va ko‘nikmalarni shakllantirishdan iborat. Fanning asosiy vazifalari strategik boshqaruv hisobining mohiyatini o‘zashtirish, strategik boshqaruv hisobining vositalarini o‘rganish, tashkilotni rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqish uchun boshqaruv muammolarini hal qilish ko'nikmalarini egallashdan iborat.	5	2